

AXBOROT MAKONI TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTDAGI O'RNI. INTERNET VA IJTIMOIIY TARMOQLARDA MILLIY MA'NAVIYATGA QARSHI MAFKURAVIY TA'SIRLAR.

Tagandurdiyeva Shasenem Qurban gizi
Urganch davlat pedagogika instituti 1 kurs magistranti

Annotasiya: Mazkur maqolada axborot makoni tushunchasi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida internet va ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga, xususan, yoshlar ongiga ko'rsatyotgan ta'siri o'rganiladi. Shuningdek raqamli axborot muhitida milliy ma'naviyatga qarshi yo'naltirilgan mafkuraviy tahdidlar, ularning shakllari va tarqalish mexanizmlari yoritib beriladi. Maqolada bunday salbiy ta'sirlarga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda milliy qadriyatlarini himoya qilish masalalari muhim ilmiy-amaliy muammo sifatida ko'rib chiqiladi.

Annotatsion: This article analyzes the concept of the information space and its role in the development of society. In the context of globalization, impact of the internet and social networks on social life, particularly on the consciousness of young people, is examid. The study highlights ideological threats directed against national spirituality in the digital information environment, as well as their forms and mechanisms of dissemination. The acticle also addresses the importance of strengthening ideological immunity, ensuring information security, and protecting national values as key scientific and practical issues in counteracting negative influences.

Kalit so'zlar: Axborot makoni, jamiyat taraqqiyoti, internet, ijtimoiy tarmoqlar, milliy ma'naviyat, mafkuraviy tahdid, axborot xavfsizligi, globallashuv.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda axborot makoni jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylandi. Axborot almashinuvi tezligi, va ko'lamining kengayishi insonlarning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi hamda ma'naviy qadriytlarga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.¹ Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining ajlarmas qismiga aylanib, axborot olish va tarqatishning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, axborot maqonida yuzaga kelayotgan mafkuraviy jarayonlar milliy ma'naviyat va qadriyatlarga nisbatan muayyan tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Turli g'oyaviy ta'sirlar, soxta axborotlar, buzgunchiva yot qarashlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali tezkor tarqalishi, ayniqsa, yoshlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Bu holat jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash, mafkuraviy

¹ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent. Ma'naviyat, 2008



immunitetini mustahkamlash hamda milliy ma'naviyatni himoya qilish masalalarini dolzarb ilmiy va ijtimoiy muammoga aylantirmoqda.

Raqamli texnologiyalar va globallashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida axborot makoni zamonaviy jamiyat tarqiqiyotining muhim omiliga aylandi. Axborot makoni insonlarning axborot olish, uni qayta ishlash va taqatish faoliyati amalga oshadigan muhim bo'lib, u jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.² Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi axborot almashinuvini tezlashtirib, jamoatchilik ongining shakllanishida muhim rol o'ynamoqda.

Axborot maqonida jamiyatda axborotni yaratish, tarqatish, qabul qilish va undan foydalanish jarayonlari amalga oshadigan ijtimoiy, texnologik va madaniy texnologik va madaniy muhitdir. Zamonaviy axborot makoni raqamli texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanib, jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ushbu makon davlat boshqaruvi, ta'lim, fan, iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat taraqqiyotida axborot makonining ahamiyati, avvalo, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, bilimlar almashinuvini tezlashtirish hamda innovatsion fikrlashni rivojlantirish bilan belgilanadi. Axborotga erkin kirish imkoniyati fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshiradi, demokratik jarayonlarning rivojiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, axborot makoni orqali milliy madaniyat, tarixiy meros va ma'naviy qadriyatlarni keng targ'ib etish imkoniyati ham mavjud.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar axborot makonining eng faol va ta'sirchan segmenti hisoblanadi. Ular orqali axborot qisqa vaqt ichida keng auditoriyaga yetib boradi. Ayniqsa, yoshlar ijtimoiy tarmoqlarning asosiy foydalanuvchilari sifatida turli axborot va g'oyalarga tez ta'sirlanadi. Bu esa ularning dunyoqarashi, xulq-atvori va qadriyatlar tizimining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Biroq ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan axborotlarning barchasi ham ishonchli va foydali emas. Soxta ma'lumotlar, manipulyativ kontentlar, yot g'oyalar va axloqiy me'yorlarga zid qarashlar jamiyat ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarga befarqlikning kuchayishi ana shunday salbiy ta'sirlarning oqibati sifatida namoyon bo'ladi.

Globallashuv sharoitida axborot makonida mafkuraviy kurashlar kuchayib bormoqda. Ayrim kuchlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, milliy ma'naviyatga zid bo'lgan g'oyalarni targ'ib etmoqda. Bunday mafkuraviy ta'sirlar ko'pincha yashirin shaklda, jozibali vizual materiallar, qisqa videolar, bloglar va kommentariyalar orqali tarqatiladi. Milliy qadriyatlarni mensimaslik, tarixni buzib talqin qilish, milliy an'ana va urf-odatlarini

² Sh.M.Mirziyoyev «Yangi "O'zbekiston Strategiyasi" T. O'zbekiston 2019



kamsitish, shuningdek, individualizm va iste'molchilik g'oyalarini mutlaqlashtirish — milliy ma'naviyatga qarshi yo'naltirilgan mafkuraviy tahdidlarning asosiy ko'rinishlaridir. Bu jarayonlar jamiyatda ma'naviy bo'shliqni yuzaga keltirib, yosh avlodning o'z milliy ildizlaridan uzoqlashishiga olib kelishi mumkin.

Milliy ma'naviyatni himoya qilishda mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Mafkuraviy immunitet — bu shaxs va jamiyatning yot g'oyalar, salbiy axborot ta'sirlariga nisbatan tanqidiy fikrlash va ongli qarshilik ko'rsatish qobiliyatidir. Uni shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimi, oilaning roli, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy institutlarning hamkorligi muhim hisoblanadi. Shuningdek, axborot xavfsizligini ta'minlash, milliy kontentni rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlarda sog'lom ma'naviy muhitni yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi sifatli axborot mahsulotlarini ko'paytirish, yoshlarni media savodxonlikka o'rgatish orqali mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish mumkin.

Axborot makonida yuzaga kelayotgan muhim muammolardan biri — milliy ma'naviyatga qarshi yo'naltirilgan mafkuraviy ta'sirlardir. Globallashuv sharoitida ayrim yot g'oyalar, soxta axborotlar, axloqiy me'yorlarga zid kontentlar internet orqali keng tarqalib, jamiyatning ma'naviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Milliy qadriyatlarni kamsitish, tarixiy xotirani buzib talqin qilish, iste'molchilik va individualizm g'oyalarini mutlaqlashtirish ana shunday mafkuraviy tahdidlarning asosiy ko'rinishlaridan hisoblanadi. Bu jarayonlarda yoshlar eng ta'sirchan ijtimoiy qatlam bo'lib, ularning axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi mafkuraviy xavflarni kuchaytiradi. Natijada milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, tarixiy merosga hurmat kabi ma'naviy qadriyatlar zaiflashishi mumkin. Shu sababli axborot makonida milliy ma'naviyatni himoya qilish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy va ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy ma'naviyatni asrash va rivojlantirishda mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Mafkuraviy immunitet shaxsning yot va zararli g'oyalarga nisbatan ongli qarshilik ko'rsatish, axborotni tanqidiy baholash qobiliyatidir. Uni rivojlantirishda ta'lim-tarbiya tizimi, oilaning roli, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy institutlarning hamkorligi muhim hisoblanadi. Shuningdek, media savodxonlikni oshirish, milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi sifatli axborot kontentlarini yaratish mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Global axborot makoni — bu butun dunyo bo'ylab axborotning erkin harakatlanishini, tarqalishini va almashinuvini ta'minlaydigan yagona tizimdir. Bugungi kunda insoniyat hayoti axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Internet, mobil aloqa, sun'iy intellekt va raqamli tizimlar jamiyatning barcha sohalarida muhim o'rin egallagan. Shu bilan birga, bu jarayon yangi tahdidlarni ham yuzaga keltirdi: yolg'on



axborotlar tarqalishi, g'oyaviy bosim, kiberjinoyatlar va axborot urushlari shular jumlasidandir. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu sababli milliy axborot xavfsizligini ta'minlash har bir mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega. Milliy axborot xavfsizligi deganda davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarini axborot sohasidagi tahdidlardan himoya qilish tushuniladi. Bu sohada kiberxavfsizlik, ma'naviy mustaqillik, axborot tizimlarining texnik himoyasi va fuqarolarning axborot madaniyati asosiy o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligini mustahkamlash maqsadida "Axborotlashtirish to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Kiberxavfsizlik to'g'risida" kabi qonunlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlar axborot tizimlarini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni saqlash va soxta axborotlarning oldini olishga qaratilgan.

Shuningdek, davlat idoralari va maxsus xizmatlar kiberxavflarga qarshi kurashish, internet makonida milliy qadriyatlarni himoya qilish, yoshlarni axborot tahdidlaridan asrash borasida faol ish olib bormoqda. Biroq, milliy axborot xavfsizligini ta'minlash faqat hukumat zimmasidagi vazifa emas. Har bir fuqaro o'zining axborot madaniyatiga ega bo'lishi, ishonchsiz manbalardan axborot olmasligi, yolg'on ma'lumotlarni tarqatmasligi zarur. Internet madaniyatining rivojlanishi, axborot savodxonligi darajasining oshishi va yosh avlodni raqamli xavfsizlik qoidalariga o'rgatish bugungi kunda dolzarb masaladir.

Global axborot makonida ishonchli, mustaqil va milliy qadriyatlarga tayanadigan axborot siyosatini yuritish davlat barqarorligini mustahkamlaydi. Har bir fuqaroning ongli yondashuvi, ma'naviy yetukligi va mas'uliyati mamlakat axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda axborot jamiyati degan tushuncha global miqyosda hayot tarziga aylanib bormoqda. Insoniyat endilikda nafaqat ishlab chiqarish yoki siyosiy munosabatlar bilan, balki axborot oqimi bilan yashaydi, rivojlanadi va raqobatlashadi. Shunday davrda global axborot makoni deganda butun dunyo bo'ylab axborot almashinuvi, saqlanishi va tarqatilishini ta'minlovchi yagona tizim tushuniladi. Bu tizim internet, sun'iy yo'ldosh aloqasi, telekommunikatsiya tarmoqlari, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlardan iborat murakkab infratuzilmani tashkil etadi. Global axborot makonining eng muhim xususiyati — bu chegarasizlikdir. Axborot endi bir mamlakat doirasida emas, balki butun dunyo miqyosida erkin harakatlanadi. Bu esa o'z navbatida madaniyatlararo muloqot, ilmiy hamkorlik, ta'lim va texnologiya almashinuvi uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Zamonaviy axborot makoni an'anaviy axborot muhitidan farqli ravishda interaktivlik, tezkorlik va global qamrov kabi xususiyatlarga ega. Raqamli platformalar orqali axborot faqat uzatilmaydi, balki foydalanuvchilar tomonidan faol ishlab chiqiladi va tarqatiladi. Bu holat "foydalanuvchi – axborot manbai" modelining shakllanishiga olib keldi. Natijada har



bir shaxs axborot makonining faol subyektiga aylanmoqda. Axborot makonining bunday ochiqqligi jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan birga, nazorat va mas'uliyat masalalarini ham keskinlashtirmoqda. Chunki axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi inson ongida axborot charchog'i (information overload)ni keltirib chiqarib, tanqidiy fikrlash qobiliyatini susaytirishi mumkin. Bugungi kunda mafkuraviy kurashlar an'anaviy qurolli yoki siyosiy qarama-qarshiliklardan ko'ra, axborot makonida olib borilmoqda. Ayrim kuchlar o'z manfaatlarini ilgari surish uchun internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, jamiyat ongiga bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sirlar ko'pincha ochiq targ'ibot emas, balki madaniy mahsulotlar, ko'ngilochar kontent, bloglar, memlar va qisqa videolar orqali amalga oshiriladi. Mafkuraviy ta'sirlarning xavfliligi shundaki, ular ko'pincha yoshlar ongiga sezilmas tarzda singdiriladi. Milliy qadriyatlar eskicha yoki zamonga mos emasdek ko'rsatilib, begona turmush tarzi ideal sifatida talqin qilinadi. Bu esa ma'naviy identifikatsiya inqiroziga olib kelishi mumkin.

Milliy ma'naviyat jamiyatning tarixiy xotirasi, urf-odatlar, axloqiy me'yorlari va dunyoqarashini o'zida mujassam etadi. Axborot makoni esa ushbu ma'naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Biroq bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanilmasa, axborot makoni milliy ma'naviyatga qarshi omilga ham aylanishi ehtimoldan xoli emas. Shu nuqtai nazardan, milliy kontentni rivojlantirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Milliy tarix, adabiyot, san'at va madaniyatga oid sifatli, zamonaviy formatdagi axborot mahsulotlari yoshlar uchun jozibador bo'lsa, yot g'oyalarning ta'siri sezilarli darajada kamayadi. Media savodxonlik shaxsning axborotni tahlil qilish, baholash va undan ongli foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy axborot makonida bu ko'nikma mafkuraviy immunitetning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Media savodxonligi rivojlangan shaxs soxta axborotni aniqlay oladi, manipulyativ usullarga berilmaydi va o'z milliy qadriyatlariga tanqidiy emas, balki ongli munosabat bildiradi. Ta'lim muassasalarida media savodxonlik fanlarini joriy etish, dars jarayonida axborot tahliliga asoslangan metodlardan foydalanish yoshlarning mafkuraviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Axborot makonida milliy manfaatlarni himoya qilish faqat shaxsiy mas'uliyat bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda davlat siyosati, huquqiy mexanizmlar va jamoatchilik institutlarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik bazasi, milliy media platformalarni qo'llab-quvvatlash va sog'lom axborot muhitini shakllantirish strategik vazifa hisoblanadi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari, ziyolilar va ommaviy axborot vositalari jamiyatda ma'naviy mas'uliyatni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, axborot makoni jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib, u katta imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan xavf-xatarlarni ham o'zida mujassam etadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda milliy ma'naviyatga qarshi yo'naltirilgan mafkuraviy ta'sirlarning oldini olish, axborot xavfsizligini ta'minlash va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada davlat, jamiyat va shaxsning o'zaro hamkorligi barqaror va sog'lom axborot makonini shakllantirishga xizmat qiladi. Axborot makoni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib, u ijtimoiy ong, dunyoqarash va ma'naviy qadriyatlarining shakllanishida bevosita ta'sir ko'rsatadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar axborot almashuvini jadallashtirgan holda ta'lim, fan va madaniyat rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq ushbu imkoniyatlar bilan bir qatorda, milliy ma'naviyatga qarshi yo'naltirilgan mafkuraviy ta'sirlar, soxta axborotlar va yot g'oyalarning tezkor tarqalishi jamiyat ma'naviy barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, axborot makonidagi mafkuraviy tahdidlar ko'pincha yashirin va jozibali shakllarda namoyon bo'lib, ayniqsa, yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu holat media savodxonlik darajasini oshirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash zaruratini yanada dolzarb etadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi sifatli va zamonaviy axborot kontentlarini rivojlantirish axborot makonida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Umuman olganda, axborot makonida milliy ma'naviyatni himoya qilish faqat texnologik yoki huquqiy choralar bilan cheklanmay, balki ta'lim-tarbiya, madaniyat va jamiyatning barcha institutlari hamkorligida amalga oshirilishi lozim. Davlat, jamiyat va shaxsning o'zaro mas'uliyati asosida barqaror va xavfsiz axborot makonini shakllantirish jamiyatning izchil rivojlanishi va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Jo'rayev N., Zunnunov A. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
4. To'rayev B.O. Globallashuv va axborot xavfsizligi masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Saidov A.X. Axborot xavfsizligi va mafkuraviy barqarorlik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018.





6. Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010.
7. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: Routledge, 2001.
8. Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996.
9. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. – Paris, 2013.
10. Bauman Z. Globalization: The Human Consequences. – New York: Columbia University Press, 1998.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. Axborot makonida mafkuraviy xavfsizlik masalalari. – Toshkent, 2022.

